SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BERDIALIYEV BAHODIR NAZAROVICH

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI NEMIS TILIGA TARJIMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.512.133'255.2:008+811.112.2'255.2:008

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Berdialiyev Bahodir Nazarovich
Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani nemis tiliga tarjimalarining lingvokulturologik tadqiqi 3

Бердиалиев Баходир Назарович
Лингвокультурологическое исследование переводов романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» на немецкий язык 25

Berdialiev Bakhodir Nazarovich
Linguocultural research of translations of Abdulla Kadiri’s novel “Bygone Days” into German 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 54

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BERDIALIYEV BAHODIR NAZAROVICH

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI NEMIS TILIGA TARJIMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4597 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Qarshibayeva Uljon Davirovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Ro‘ziyev Yarash Bozorovich, filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “19” mart 10⁰⁰dagi majlisida bo‘ladi. (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; Faks (998966)210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62810-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “3” mart kuni tarqatildi.
(2026-yil “3” mart dagi № 12-raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Z. Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon madaniy makoniga milliy adabiyotlarning kirib borishi masalasi, ayniqsa, XXI asrda globallashuv, madaniyatlararo integratsiya va til siyosatining o‘zgarishi jarayonida nihoyatda dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining nemis tiliga tarjimalarini lingvokulturologik yondashuv asosida o‘rganish nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki xalqaro tarjimashunoslik uchun ham ilmiy va madaniy ahamiyatga ega. Jahon tarjimashunosligida so‘nggi yillarda lingvokulturologik paradigma, ya’ni “til – madaniyat – tarjima” uchligi asosida olib borilayotgan tadqiqotlar soni ortmoqda. “O‘tkan kunlar” kabi madaniy jihatdan murakkab matnli asarlarni o‘rganish esa lingvokulturologik nazariyalarni amalda sinovdan o‘tkazish imkonini beradi.

Dunyo tarjimashunosligida bugungi kunga kelib “madaniy burilish” konseptsiyasi shakllandi. Bu konseptsiyaga ko‘ra, tarjima faqat til darajasida emas, balki madaniyatlararo almashinuv sifatida ham ko‘rilmoqda. Tarjima jarayonida matnni qabul qiluvchi madaniyatga moslash yoki asliyat madaniyatini saqlash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda lingvokulturologik birliklar, ya’ni til ichidagi madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan birliklar muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylanmoqda. Shuningdek, globalizatsiya sharoitida bunday birliklarning avtomatlashtirilgan bazalarini ishlab chiqish va takomillashtirish ham dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida milliy o‘zlikni, til va madaniyatni asrab-avaylash, ularni jahon miqiyosida targ‘ib etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatida tarjimaning bugungi kundagi ahamiyatini ta’kidlab, mamlakatimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo‘lgan minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo‘yicha ijodiy maktab shakllanganini ta’kidlaydi. Asrlar davomida komil inson tarbiyasi, adolatli jamiyat, shaxs erkinligi, vatan ozodligi, bunyodkorlik, bag‘rikenglik va baynalmilalchilik, odamiylik kabi o‘lmas fazilatlarni tarannum etib kelayotgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning eng sara namunalarini xorijiy tillarga o‘girish va chet ellarda targ‘ib etish bo‘yicha mamlakatimizda ko‘plab ishlar amalga oshirilayotganligini ta’kidlaydi.[1]

Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni, 2023-yil 3-iyuldagi “Oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim hamda kadrlar malakasini oshirish va tayyorlash to‘g‘risida”gi PF-107-sonli farmoni, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni

[1] Mirziyoyev Sh. “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferentsiya ishtirokchilariga. https://president.uz/uz/lists/view/1926 (Murojaat qilingan sana: 28.07.2025).

ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli, shuningdek, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Y.Martin, Y.Albrext, L.Venuti va P.Nyumark[2] kabi olimlar badiiy tarjima tarixi va unga madaniy ta’sirlarni, madaniyatlararo muloqot muammolarini o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritishgan. V.Maslova, V.Teliya, O.Kovalyova, E.Vorzakova va S.Ter-Minasova[3] kabi tilshunoslar badiiy matn tarjimasining lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishgan. O‘zbek tarjimashunoslari orasida esa U.Yo‘ldoshev, N.To‘xtaxodjayev, R.Shirinova[4] va boshqalar badiiy tarjimaning lingvokulturologik tadqiqini, I.Tuxtasinov tarjimada madaniy moslashish holatlarini, D.Inamova madaniyatlarni qiyoslash va ularni tarjimada aks etishirilishini, O‘.Qo‘ldoshov badiiy tarjima va muqobillik masalalarini, M.Choriyeva[5] esa aynan “O‘tkan kunlar”ning tarjima variantlarida milliylik ifodasi va o‘girmalardagi tafovut va o‘xshashliklarni tadqiq etishgan. Shuningdek, X.Hamidov T.Saydaliyev, M.Chorieva, G.Burxonova,

---

[2] Martin J., Thamas N. Intercultural communication in contexts. 5th ed. – New York: McGraw-Hill, 2010. – 528 p; Albrecht J. Literarisches Übersetzen. Geschichte – Theorie – Kulturelle Wirkung. Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgeselschaft, 1998. – 363 p; Venuti L. Translator’s Invisibility. – London • New York: Routledge, 1995. –366 p; Newmark P. About Translation. – Clevedon • Buffalov • Toronto • Sydney, Multilingual Matters Ltd, 1991. – 311 p.

[3] Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – 183 с; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 222 с; Ковалёва О., Варзакова Е. Лингвокультурологические особенности перевода художественного текста / Филологические науки / Вопросы теории и практики. www.gramota.net/materials/2/2019/11/ 2019. Том 12. Выпуск 11. – С. 400-404; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – 149 с.

[4] Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 41 б.; Тўхтаходжаева Н.А. Бадиий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. афтореф. – Т., 2017. – 42 б.; Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши. Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Т., 2017. – 46 б.

[5] Тухтасинов И. Таржимада маданий мослашиш ҳолатлари / Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. СамДЧТИ нашриёти, № 1 (62), 2017. – Б. 5-10; Инамова Д. Маданиятлар қиёси ва унинг таржимада акс эттирилиши. Таржимашуносликнинг долзарб масалалари: таржима назарияси ва амалиёти, таржима тарихи, лингвокультурология ва туризм соҳаларининг узвий боғлиқлиги” мавзусидаги Республика илмий амалий анжуман метариаллари тўплами. – Т., 2019. – Б. 134-136; Қўлдошев Ў. Бадиий таржиманинг лингвомаданий жиҳатлари таҳлили. Scientific Journal “Academic Research in Educational Sciences”. Volume 3 | ISSUE 1 | 2022. – P. 670-678; Қўлдошев Ў. Бадиий таржима ва муқобиллик / Ученый XXI века • 2022 • № 1 (82). – Б. 46-49; Choriyeva M. “O‘tkan kunlar” romanining tarjima variantlarida milliylik ifodasi va o‘girmalardagi tafovut va o‘xshashliklar. “Uchinchi renessans: ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti istiqbollari”. www.or iens.uz. 12.2021. – B. 265-271.

B.Ashurovlarning[6] ilmiy ishlari “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjimasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Yuqoridagilardan farqli ravishda mazkur tadqiqot ishi lingvokulturologik birliklarning o‘zbek tilidan nemis tiliga tarjima muammolarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining “Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani nemis tiliga tarjimalarida lingvokulturologik birliklarning qayta ifodalanishini tahlil qilish, asliyat va tarjima matnlari o‘rtasidagi madaniy tafovutlar hamda adekvat tarjima mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida lingvokulturologik birliklarni nemis tiliga tarjima qilishda mahalliylashtirish (domestikatsiya) va xorijiylashtirish (forenizatsiya) yondashuvlari, shuningdek, transliteratsiya, parafraz, tavsifiy tarjima, modulyatsiya, umumlashtirish va kalkalash kabi tarjima usullarining qo‘llanish chastotasini hamda madaniy mazmunni yetkazishdagi vazifasini ochib berish;

“O‘tkan kunlar” romanining nemis tiliga tarjimalarida etnografik realiyalar, frazeologik birliklar, diniy terminlar, milliy mentalitetga xos konseptlar hamda ijtimoiy-maishiy tushunchalarning ifodalanish xususiyatlari va funksional ahamiyatini aniqlash;

“O‘tkan kunlar” romanidagi milliy-madaniy koloritli birliklar tarjimasida konkretizatsiya, generalizatsiya va madaniy adaptatsiya usullarining qo‘llanishi natijasida semantik torayish, kengayish va neytrallashuv hamda lingvokulturologik qatlamning qisman soddalashuvi yuzaga kelishi hamda kommunikativ ekvivalentlikning saqlanishini dalillash;

diniy so‘zlar va realiyalarning nemis tiliga tarjimasida madaniy neytrallashtirish va domestikatsiyaning ahamiyatini aniqlab, uning asliyatdagi milliy-diniy koloritning o‘zgarishiga, islomiy va sharqona konseptlarning esa xristian madaniyatiga xos birliklar bilan almashtirilishi natijasini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani (asli), romanning L.Bat va V.Smirnovalar tomonidan rus tiliga ilk tarjimasi hamda asrarning A.Shpext va B.Aripova tomonidan nemis tiliga tarjimalaridagi lingvokulturologik mazmunga ega birliklar olindi.

[6] Ҳамидов Х. “Ўткан кунлар” романи таржималарида мақолларнинг берилиши / Ўзбекистонда хорижий тиллар. №1/2014, – Б. 109-115; Chorieva M. Abdulla Qodiriy’s Novel “The Days Gone by” and the issue of translation / Scientific Journal: “Academic Research In Educational Sciences”. Volume 2 | ISSUE 2 | 2021. – P. 1090-1095; Burxonova, G. Lunguacultural Problem of the Literary Translation from Uzbek into English (On the materials of “Bygone Days” by Abdullah Qodiri) / Academic Research in Modern Science, 3(35), 2024, –P. 167–170; Retrieved from ttps://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/50022; Ashurov B. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida milliy madaniy xususiyatlarning aks ettirilishi / “Pedagogs” international research journal. Vol.10, Issue-1, May – 2022. – P. 232-239.

Tadqiqotning predmeti Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi lingvokulturologik birliklarning nemis tiliga tarjimalarida qayta ifodalanishi, ularning tarjima transformatsiyalari uchrashi, milliy-madaniy xususiyatlarning ifodalanishi hamda tarjima strategiya va usullarining qo‘llanishini o‘rganishdan iboratdir.

Tadqiqot usullari:

Mavzuni yoritishda deskriptiv, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, badiiy matning lingvokulturologik tahlili, semantik, pragmatik tahlil kabi metodlar majmui qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida lingvokulturologik birliklarni nemis tiliga tarjima qilishda mahalliylashtirish (domestikatsiya) va xorijiylashtirish (forenizatsiya) yondashuvlari, shuningdek, transliteratsiya, parafraz, tavsifiy tarjima, modulyatsiya, umumlashtirish va kalkalash kabi tarjima usullarining qo‘llanish chastotasi aniqlanib, ularning madaniy mazmunni yetkazishdagi vazifaviy ustuvorlik darajasi ochib berilgan;

“O‘tkan kunlar” romanining nemis tiliga tarjimalarida etnografik realiyalar, frazeologik birliklar, diniy terminlar, milliy mentalitetga xos konseptlar hamda ijtimoiy-maishiy tushunchalarning ifodalanish xususiyatlari, milliy-madaniy yuklamasi va funksional ahamiyati aniqlangan;

“O‘tkan kunlar” romanidagi milliy-madaniy koloritli birliklar tarjimasida konkretizatsiya, generalizatsiya va madaniy adaptatsiya usullarining qo‘llanishi natijasida semantik torayish, kengayish va neytrallashuv hamda lingvokulturologik qatlamning qisman soddalashuvi yuzaga kelishi, biroq kommunikativ ekvivalentlikning saqlanishiga olib kelishi dalillangan;

diniy so‘zlar va realiyalarning (xufton namozi, joynamoz, Qur’on o‘qish, charlar, suyunchi kabi) nemis tiliga tarjimasida madaniy neytrallashtirish va domestikatsiyaning nisbatan ustunlik qilishi aniqlanib, bu holat asliyatdagi milliy-diniy koloritning susayishiga olib kelishi, islomiy va sharqona konseptlarning esa xristian madaniyatiga xos birliklar bilan almashtirilishi konfessional-semantik siljishlarni keltirib chiqarishi lingvokulturologik tafovut nuqtayi nazaridan ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik va lingvokulturologiya sohalaridagi tadqiqotlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, “O‘tkan kunlar” romanidagi madaniy birliklarning tarjima strategiyalarini aniqlash, ularning samaradorligini baholash, va tarjimada madaniy tafovutlarni bartaraf etish yo‘llarini taklif etish orqali ilmiy va amaliy faoliyatga aniq hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalari tarjimonlar, filologlar, talabalar, magistr va doktorantlarga ilmiy-metodik ishlanma sifatida foydalanilish uchun tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O‘rganilgan nazariy manbalar va ilmiy qarashlarning puxtaligi, “O‘tkan kunlar” romanining o‘zbekcha va nemischa matnlari asosida olib borilgan qiyosiy-lingvokulturologik tahlil, olingan xulosalarning aniq matnli misollar bilan berilganligi, shuningdek, tavsiya etilgan

metodik yondashuvlarning tarjima amaliyotida qo‘llash mumkinligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ko‘rsatib bergan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik kesishmasida olib borilgan bo‘lib, milliy-madaniy birliklarning boshqa til va madaniyatga ko‘chishi jarayonini nazariy asoslashga xizmat qiladi. Nemis tilidagi tarjimalarning qiyosiy tahlili natijasida turli tarjima strategiyalari, uslublari va yondashuvlarining samaradorligi aniqlandi, bu esa tarjimashunoslikning nazariy-metodologik bazasini kengaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot milliy o‘zlik va madaniy o‘ziga xoslikni til orqali talqin qilish hamda uni boshqa madaniyatga uzatish mexanizmlarini ilmiy asosda ko‘rsatib berdi. Tadqiqot natijalari xorijiy tillarni, xususan, nemis tilini o‘qitishda milliy-madaniy komponentni hisobga olgan holda o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar tayyorlashda qo‘llanilishi mumkin. Badiiy tarjimada lingvokulturologik birliklarni adekvat ifodalash bo‘yicha tavsiyalar tarjimonlar faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi.

Dissertatsiya xulosalari o‘zbek adabiy merosini xorijiy mamlakatlarda targ‘ib qilish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini nemis kitobxoniga yetkazishda amaliy natija beradi va filologiya va tarjimashunoslik yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlari olib boruvchi talabalar, magistrant va doktorantlar uchun, shuningdek, “Termin va matnlar tarjimasi” va “Badiiy tarjima mahorati” kabi fanlarni o‘qitishda qo‘shimcha manba vazifasini o‘taydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilidan nemis tiliga badiiy tarjima jarayonida lingvokulturologik birliklarning ifodalanishi, asliyat va tarjima matnlari o‘rtasidagi madaniy tafovutlar hamda adekvat tarjimaga erishish yuzasidan olingan ilmiy ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida, jumladan:

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida lingvokulturologik birliklarni nemis tiliga tarjima qilishda mahalliylashtirish va xorijiylashtirish yondashuvlari, shuningdek, transliteratsiya, parafraz, tavsifiy tarjima, modulyatsiya, umumlashtirish va kalkalash kabi tarjima usullarining qo‘llanish chastotasiga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrdagi 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan ‘‘English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 31-iyuldagi 2270/02-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda o‘zaro madaniy tafovutlarni tahlil qilish, global fikrlash va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga hissa qo‘shilgan;

“O‘tkan kunlar” romanining nemis tiliga tarjimalarida etnografik realiyalar, frazeologik birliklar, diniy terminlar, milliy mentalitetga xos konseptlar hamda ijtimoiy-maishiy tushunchalarning ifodalanish xususiyatlari, milliy-madaniy yuklamasi va funksional ahamiyatining aniqlanishiga oid xulosalardan foydalanilgan holda “Samarqand viloyat teleradiokanali” DMda 19-iyul kuni efirga chiqqan “Ta’lim va taraqqiyot” eshittirishining navbatdagi soni ssenariysini

tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston MTRK Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 29-iyuldagi 01-07/270-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning badiiy tarjima amaliyoti va tarjimaning lingvomadaniy xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarini oshirishga erishilgan;

“O‘tkan kunlar” romanidagi milliy-madaniy koloritli birliklar tarjimasida konkretizatsiya, generalizatsiya va madaniy adaptatsiya usullarining qo‘llanishi natijasida semantik torayish, kengayish va neytrallashuv hamda lingvokulturologik qatlamning qisman soddalashuvi yuzaga kelishiga oid xulosalardan 2024-2025-yillarda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida amalga oshirilgan “O‘zbekiston Respublikasi turizm obyektlarining katalogini raqamlashtirishning turizm rivojlanishiga ta’sirini tadqiq etish” nomli amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining 2025-yil 1-avgustdagi 1536-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha materiallarining tarjimalarini amalga oshirishda ish samaradorligi va sifati oshirilgan;

diniy so‘zlar va realiyalarning nemis tiliga tarjimasida madaniy neytrallashtirish va domestikatsiyaning nisbatan ustunlik qilishi, bu holat asliyatdagi milliy-diniy koloritning susayishiga olib kelishi, islomiy va sharqona konseptlarning esa xristian madaniyatiga xos birliklar bilan almashtirilishi konfessional va semantik siljishlarni keltirib chiqarishi bo‘yicha olingan xulosalardan Meksika Milliy Avtonom Universitetida 2024-yil 11-16-noyabr kunlari tashkil etilgan “Uzbekistan: Cultural and Heritage Treasures” mavzusidagi ma’ruza va seminar-treninglarda keng foydalanilgan (Meksika Milliy Avtonom Universitetining 2024-yil 14-noyabrdagi sertifikati). Natijada tarjimonlar, madaniyatshunoslar va tilshunoslar uchun lingvokulturologik yondashuvni qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘rsatma bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, o‘zbek madaniy merosining xalqaro maydondagi tanilishi va tushunilishiga hissa qo‘shilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 145 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari shakllantirilgan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilib,

tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Badiiy tarjimaning nazariy va amaliy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, bob uch fasldan iborat. Mazkur bobda tarjimashunoslikning bugungi kundagi dolzarb masalalari va badiiy tarjimaning muhim jihatlari, nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Bobning birinchi fasli **“Zamonaviy tarjima nazariyasining asosiy tushuncha va tamoyillari”** deb nomlangan va unda zamonaviy tarjima nazariyasining asosiy tushuncha va tamoyillari nazariy jihatdan o‘rganilgan. Badiiy tarjimada qo‘llaniladigan leksik transformatsiyalarning transkriptsiya va transliteratsiya, kalkalash, leksik-semantik almashtirish kabi asosiy usullari tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu faslda o‘zbek zamonaviy tarjimashunosligining oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri sifatida o‘zbek tilining milliy til korpusini rivojlantirish, shuningdek, o‘zbek tilining qo‘llanilish doirasini kengaytirish, elektron lug‘atlar, tarjimon dasturlar, mobil ilovalar va boshqa turdagi til korpuslarini yaratish bugungi kunda o‘zbek tilshunosligining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolayotganligi asoslantirilgan.

Bobning **“Badiiy matn tarjimasi va uning linvokulturologik xususiyatlari”** nomli ikkinchi faslida badiiy matn tarjimasi bo‘yicha dolzarb muammolar izohlanib, global kommunikatsiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zgaruvchan munosabatlarni tushuntirish va tahlil qilishga qaratilgan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining nemis tiliga tarjimalari misolida badiiy matn tarjimasi va uning lingvokulturologik tadqiqi jarayonidagi murakkabliklar va xususiyatlar tadqiq etilgan hamda quyidagi xulosalarga kelingan: Badiiy matn tarjimasi lingvokulturologik xususiyatlarni hisobga olmasdan to‘laqonli amalga oshirilishi mushkul. Har bir frazeologizm, realiya yoki madaniy ramz aslida xalqning tarixiy-madaniy xotirasi, milliy identiteti va dunyoqarashini aks ettiradi. Tarjimon esa ularni boshqa tilda ekvivalent, funksional yoki deskriptiv yo‘l bilan ifodalash orqali ikki madaniyatni yaqinlashtiradi. Demak, lingvokulturologik yondashuv badiiy tarjima sifatini oshirishda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Bobning uchinchi fasli **“O‘zbek tilidan nemis tiliga (bilvosita va bevosita) tarjimaning o‘ziga xos jihatlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda dastlab Markaziy Osiyo xalqlarini har tomonlama tadqiq etgan va o‘zbek adabiyoti namunalarini nemis tiliga tarjimalarini yaratishda katta hissa qo‘shgan nemis turkolog olimlari hamda nemis adabiyotini o‘rganib o‘zbek tiliga tarjima qilishga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan olimlarning ilmiy faoliyati o‘rganilgan. Jumladan, H.Vamberi (Arminius Vambery)[7], G.Yungbauer[8], M.Shpadu[9], I.Baldauf[10], Z.Klaynmixel[11] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan bilvosita hamda bevosita tarjima ishlari

[7] Vambery A. Travels in Central Asia. – L.: Spottiswoode and Co. New-street Square, 1864. – 494 p.
[8] Jungbauer G. Märchen aus Turkistan und Tibet. – F.: Outlook Verlag GmbH, 2022. – 320 S.
[9] Imyaminova Sh. On the Question of the History Formation of Uzbek-German Literary and Cultural Relations (1960-1975). The American Journal of Social Science and Education Innovations. January 26, 2021. – P. 211-218.
[10] Papers by Ingeborg Baldauf. (https://hu-berlin.academia.edu/IngeborgBaldauf).
[11] Kleinmichel S. Aufbruch aus orientalischen Dichtungstraditionen. Studien zur usbekischen Dramatik und Prosa zwischen 1910 und 1934. – Berlin: Akadémiai Kiadó, 1993. – 279 S.

o‘rganilgan. Shuningdek, o‘zbek va nemis tillari tarjimachiligining taniqli vakillari sifatida E.Vohidov[12] hamda P.Usmon[13], X.Rahimov[14], Sh.Imyaminova[15,16], Sh.Karimov[17], Y.Parda[18], Y.Egamova[19], S.Salim[20], M.Akbarov[21], O.Ostonov[22] va boshqalarning tarjima ishlari tahlil qilingan. Dissertatsiyaning asosiy tahlil obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asliyat matni, asarning L.Bart va V.Smirnovalar tarjimasidagi ruscha matni[23], nemis tarjimoni A.Shpext[24] tomonidan bilvosita (rus tilidan amalga oshirilgan) nemischa tarjimasi hamda B.Aripovaning[25] asliyatdan foydalangan holda (A.Shpext tarjimasining) qayta ishlangan nashridan foydalanildi.

Birinchi bobda til birliklarining ramziy mifologik, paremiologik va boshqa lingvomadaniy qatlamlarini tarjima qilishda milliy o‘ziga xoslikni saqlash zarurligi asoslandi. “O‘tkan kunlar” romani tarjimalari misolida badiiy matnning milliy-madaniy qatlamlari tarjimada qanday talqin qilinishi va ularning ma’no siljishlari o‘zbek va nemis madaniy tafakkuri o‘rtasidagi tafovutlar yoritib berildi. Badiiy matn tarjimasi jarayonida lingvokulturologik birliklar – realiyalar, frazeologizmlar, ramzlar, diniy va mifologik tushunchalarning ahamiyati ochib berildi. Tarjimada lingvokulturologik transformatsiya usullaridan (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent, deskriptiv tarjima, funksional almashtirish, transliteratsiya) samarali foydalanish madaniyatlar o‘rtasida semantik va estetik muvozanatni ta’minlaydi. Bilvosita tarjimalarda semantik siljishlar va realiyalarning noto‘liq ifodalanishi kuzatilgan. Bevosita tarjimalarda esa asliyatga yaqinlik, muallif g‘oyasining to‘liqroq yetkazilishi va milliy-madaniy xususiyatlarning yaxshiroq ifodalanishi ta’minlangan. Shuningdek, tarjima sifatining yuqori bo‘lishida tarjimonning nafaqat til, balki xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlari va turmush tarzini chuqur bilishi ham muhim ahamiyat kasb etishi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘tkan kunlar” romani nemis tiliga tarjimalarining qiyosiy tipologik va lingvokulturologik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch

---

[12] Гёте И.В. Фауст. Трагедия. Эркин Воҳидов тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 268 б.

[13] Гёте Й.В. Фауст. Трагедия. Пошо Али Усмон тарж. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 220 б.

[14] O‘zbekiston Respublikasi Akademiklari, Olimlarining Bibliometrik ma’lumotlar bazasi. **(**https://akademiklar.uz/rahimov-xurram**)**

[15] Imyaminova Sh. Die direkte und indirekte übersetzungsprobleme in der linguistik (nach den Materialen der Übersetzungen der Prosa und Poesie aus dem Deutschen ins Usbekische). www.journal.fledu.uz. № 4/2014. – B. 88-97.

[16] Imyaminova Sh. Bevosita tarjima yutuqlari va muammolari // Til va adabiyot ta’limi. (www.tilvaadabiyot.uz) – Toshkent, 2019. №4. – B.11-19.

[17] Karimov Sh. A.Qahhor ijodi xorijiy tarjimonlar nigohida. “Sharq yulduzi” jurnali, 2015 yil, 4-son. (https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/shavkat-karimov-abdulla-qahhor-ijodi-horijiy-tarjimonlar-talqinida/)

[18] Parda Y. Annemariye Shimmel. So‘fiy ayollar. (https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf /annemariye-shimmel-sofiy-ayollar.html).

[19] Гёте Й.В. Ёш Вертернинг изтироблари. (олмон тилидан Я.Эгамова таржимаси). – Тошкент: Янги аср авлоди. 2006. – 129 б.

[20] Гёте Й.В. Ғарбу Шарқ девони. (олмон тилидан С.Салим таржимаси). – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 164 б.

[21] Ҳессе Ҳ. Чўл бўриси: роман, қайта нашри, таржимон М.Акбаров. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2014. – 264 б.

[22] Ostonov O. Geschichten entlang der Seidenstrasse. Weisheiten des Orients / gesammelt und ins Deutsche übertragen. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2014. – 160 S.

[23] Кадыри А. Минувшие дни. Роман. – Тошкент: Гослитиздат УзССР, 1958. – 374 с.

[24] Kodiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – 361 s.

[25] Qodiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Dagyeli Verlag, 2020. – 371 s.

faslni o‘z ichiga oladi. Mazkur bobning **“O‘tkan kunlar” romani nemis tiliga tarjimalarining qiyosiy-tipologik tadqiqi”** nomli birinchi fasli romanning asliyat matni hamda uning nemis tiliga tarjimasi matnlari misolida chog‘ishtirma tarjimashunoslikda uchraydigan muammolarni o‘rganishga qaratilgan.

B.Aripova ishi A.Shpext ishidan farqli ravishda bevosita asliyatdan foydalangan holda amalga oshirilganligini inobatga olib, bu tarjimani bevosita tarjima deyishimiz mumkin. Chunki B.Aripova tomonidan asar tarjimasiga ayrim muhim to‘ldirishlar kiritilgan va milliy so‘zlar va realiyalar asliyatdagi kabi saqlangan. Shunday bo‘lsa-da, B.Aripova ishida tarjima uslubi asosan A.Shpextga va vosita tilga tarjimani amalga oshirgan L.Bat va V.Smernovalar uslubi bilan mutanosib. A.Shpext tomonidan amalga oshirilgan tarjimada asosan erkin va ijodiy tarjima usullaridan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, tarjimon ishida transformatsiyalar, almashtirish, umumlashtirish va tushurib qoldirish holatlari ham uchraydi. A.Shpext tarjimasi esa asliyat bilan solishtirilganda, birinchi bo‘limdagi “Yozg‘uchidan” nomli kirish so‘zi va so‘ngso‘zlar, uchinchi bo‘limdagi “Qipchoqqa qirg‘in” bobining oxirida Turkistonga kelayotgan bosqinchilariga nisbatan aytilgan achchiq haqiqat gaplar tushirib qoldirilgan. Bu kabi qisqartirishlar o‘sha davr senzurasi ta’siri ekanligini tushunish mumkin. B.Aripova ishida esa bunday jiddiy kamchiliklarning aksari tuzatilgan. Bundan tashqari, A.Shpext tarjimasida vosita til bo‘lgan rus tilining yaqqol ta’sirini (rus tiliga xos xususiyatlarini) ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, B.Aripova tomonidan asardagi milliy xos so‘zlar, realiyalar, lakunalar va boshqa muqobilsiz leksikalarning kitob so‘ngida berilgan izohlariga anchagina to‘ldirishlar kiritilgan. Bundan tashqari, ko‘plab muqobilsiz leksika hamda lakunalar tarjimasida rus tilidagi “ж” tovishini ifodalashda “dsh” harflar birikmasidan foydalanilgan. B.Aripova tomonidan esa bunday tovushli muqobilsiz leksika va lakunalar aksariyat hollarda asliyatdan o‘z holicha qabul qilingan va ular transliteratsiya qilinib, kitob so‘ngida ularga izohlar berilgan. Shuningdek, B.Aripova ishida A.Shpext tarjimasidan farqli ravishda, asardagi atoqli otlar, milliy so‘zlar va realiyalarning yozilishi, ularning talaffuzi nemis tiliga xos bo‘lmasada, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida asliyatdagi kabi qoldirilgan. Shu bilan birga, nemischa talaffuzda xatolarga yo‘l qo‘yilmasligi uchun kitob avvalida nemis tilida mavjud bo‘lmagan va talaffuzi nemis tilida farq qiladigan “ch”, “g‘”, “j”, “x”, “sh”, “q”, “v”, “y”, “z” harflarini to‘g‘ri talaffuz qilinishi bo‘yicha ularga transkipsiya va izohlar berilgan.

Dissertatsiya ishida “O‘tkan kunlar” asarining nemis tiliga tarjimasi birinchi bor lingvokulturologik aspektda tahlil qilingan. Asliyatdagi “bel bog‘lash”, “o‘ra”, “tanob” va “tepki” kabi realiyalar, milliy xos so‘zlar va boshqa madaniy birliklar ko‘p hollarda tashlab ketilganligi, “kundosh”, “arvoh piri”, “iftor” va “musofir” kabi lingvomadaniy birliklar noto‘gri tarjima qilinganligi kabi xulosalar olingan. A.Shpext tarjimasida 105 ta so‘z transliteratsiya uslubida berilib kitob, so‘ngida ularga izoh berilgan bo‘lsa, B.Aripova tarjimasida 62 ta realiya va xos so‘zlar keltirilgan va ular izohlangan.

Ikkinchi bobning **“O‘tkan kunlar” romani nemis tiliga tarjimalarida uslub va usullarning qo‘llanishi”** nomli ikkinchi bo‘limida “O‘tkan kunlar”ning

nemis tiliga tarjimalarida uslub va usullarning qo‘llanilishi o‘rganilgan. Dissertatsiyani tayyorlash davomida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani matnidan lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish uchun ajratib olingan jami 131 ta lingvokulturologik birlikning nemis tiliga tarjima qilinishida turli tarjima strategiya va usullaridan foydalanilganligi kuzatiladi. Ma’lumotlar (ilova) shuni ko‘rsatadiki, tarjimada forenizatsiya va tavsifiy tarjima (izohlash) usullari eng yuqori qo‘llanish chastotasiga ega bo‘lib, har ikkalasi 72 martadan ishlatilgan. Bu holat asardagi milliy-madaniy xususiyatlarni saqlab qolish va nemis kitobxoniga tushunarli shaklda yetkazish zarurati bilan izohlanadi. Shuningdek, transliteratsiya usuli ham keng qo‘llanilib, 55 ta holatda uchraydi. Bu, ayniqsa, milliy kiyim-kechak, lavozim nomlari, urf-odatlar va realiyalarni tarjima qilishda kuzatiladi (masalan, do‘ppi – Doppa, palov – pilaw, chopon, mingboshi va boshqalar). Ushbu usul orqali asl matndagi milliy koloritni saqlashga erishilgan. Domestikatsiya usuli esa 45 marta qo‘llanilgan bo‘lib, asosan frazeologik birliklar, maqollar va diniy-ma’naviy tushunchalarni nemis madaniyatiga yaqin ekvivalentlar orqali berishda namoyon bo‘ladi (“Egasini siylagan itiga suyak tashlar”, “Jaholat kelsa aql qochadi” va boshqalar). Shuningdek, kamroq uchraydigan usullar qatoriga tushirib qoldirish (12 ta), umumlashtirish (12 ta), modulyatsiya (8 ta), kalkalash (6 ta) va parafraz (5 ta) kiradi. Buning natijasini diagrammada (Rasm 1.) ham ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm. Tarjima usullarining qo‘llanish chastotasi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida (%). Manba: Muallifning o‘zi tomonidan tayyorlangan jadval asosida.

Bu usullar, asosan, tarjimada ma’no yo‘qotilishining oldini olish yoki madaniy moslikni ta’minlash maqsadida tanlangan. Umuman olganda, nemis tiliga tarjimalarda forenizatsiyaga moyillik ustun bo‘lib, bu asarning milliy-madaniy ruhini maksimal darajada saqlab qolishga qaratilgan yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi bobning **“O‘tkan kunlar” romani nemis tiliga tarjimalarida lingvokulturologik talqin”** deb nomlangan uchinchi faslida romandagi tilning

madaniy birliklarini o‘zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilishda lingvokulturologik xususiyatini ochib berishga harakat qilindi. Tarkibida lingvokulturemalar mavjud bo‘lgan murakkab so‘zlarni tarjima qilish tarjimon uchun eng katta muammolardan biri bo‘lib, u kulturologik xususiyatlarni inobatga olishi va qo‘shimcha axborot manbalariga murojaat qilishi lozim. “O‘tkan kunlar” romanining matni lingvokulturemalarga boy bo‘lib, tarjima jarayonida milliy, eskirgan, kasb-hunar va urf-odatlaga xos hamda mahalliy so‘zlar tarjima qilinganda nemis tilidagi o‘quvchi uchun lug‘aviy mosliklar, transliteratsiya va transkripsiya qilinadi yoki tushuntiriladi.

Tarjimonlarning individual yondashuvi, ularning madaniyatlararo tafakkur darajasi va til sezgirligi asarning nemis tilidagi badiiy qiymatini belgilagan. A.Shpext tarjimasi asosan kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lsa, B.Aripova tarjimasi bevosita asliyatdan foydalangan holda madaniy sodiqlikka yaqinroq natijani ta’minlagan. Shu bois, ushbu tarjimalar o‘zbek badiiy merosini nemis tilida talqin etishda lingvokulturologik yondashuvning yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘tkan kunlar”dagi lingvokulturologik birliklarning nemis tiliga tarjimasi”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tashkil topgan. Bobning **“O‘tkan kunlar” romani nemis tiliga tarjimalarida milliy koloritning saqlanishi va qayta yaratilishi”** nomli birinchi faslida romandagi milliy koloritning saqlanishi va qayta yaratilishi masalasi tahlil qilingan. Romandagi milliy ruh, iboralar, maqollar va madaniy realiyalar tarjimada aks ettirilishi o‘rganilgan va tahlilga tortilgan.

“O‘tkan kunlar” romanining nemis tiliga tarjimalarini tahlil qilish orqali shuni ko‘rish mumkinki, asardagi milliy koloritni saqlash va qayta yaratish murakkab, ammo juda muhim jarayon hisoblanadi. Tarjimonlarning bu boradagi yondashuvi turlicha bo‘lgan: ayrim hollarda ular asl matndagi madaniy va milliy o‘ziga xosliklarni asliyatga sodiq holda saqlashga harakat qilgan bo‘lsalar, boshqa hollarda esa soddalashtirish, umumlashtirish yoki o‘z madaniyatlariga yaqinlashtirish yo‘lidan borishgan. Xususan, “qizlar majlisi” kabi o‘zbek urf-odatlariga xos tushunchalarning “Polterabend” kabi nemis urf-odatlari bilan almashtirilishi, yoki “taqsir”, “kimxob to‘n”, “guzar” kabi milliy realiyalarni so‘zma-so‘z yoki muqobillar bilan berilishi matndagi tarixiylik va madaniy ruhni susayishiga olib kelgan. Biroq B.Aripova tomonidan amalga oshirilgan tarjimada asliyatga yaqinlik, milliy ruh va tarixiy kontekstni saqlab qolish yo‘lida ancha puxta yondashuvlar kuzatiladi. Mazkur jihat tarjimonning nafaqat lingvistik bilimlari, balki uning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi darajasi bilan ham bevosita bog‘liq. Rus tiliga tarjimada “девичник”[26] muqobili asliyatga anchayin yaqin mazmun beradi. Ya‘ni rus tilidagi bu so‘z ham to‘y kunidan avvalgi kunda kelinning dugonalari tomonidan nishonlanadigan, bo‘ydoqlik hayoti bilan xayrlashish maqsadida o‘tkaziladigan bazm mazmunini beradi. Ammo nemis tiliga tarjimada muallif tomonidan “qizlar majlisi”ga berilgan ta’rif tarjimada negadir birgina “der Polterabend”[27] so‘zining o‘zi bilan berilgan. Bunda tarjimon

[26] Кадыри А. Минувшие дни. Роман. – Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1958. – С. 66.
[27] Kadiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 46.

asliyatda ifodalangan o‘zbek millatiga xos urf-odatni nemis xalqiga xos bo‘lgan urf-odat va marosim - “der Polterabend” muqobilini ishlatish orqali o‘quvchida ma’lum ma’noda tasavvur uyg‘otishga harakat qilgan bo‘lishi mumkin. Ammo bu asliyatdagi milliy koloritning saqlanishiga salbiy ta’sir qilgan. Chunki “der Polterabend” nemis milliy urf-odatlariga xos bo‘lgan marosimdir. Nemis tili izohli lug‘atida ushbu so‘zga quyidagicha izoh berilgan: “Der Polterabend – der Abend vor der Hochzeit, den man meistens mit Freunden feirt: Am Polterabend wird nach altem Brauch Geschirr zerschlagen”[28] (mazmuni: “Der Polterabend” odatda erkak (kuyov nazarda tutilgan) do‘stlari bilan nishonlaydigan to‘y kunidan avvalgi kecha. Bu kechada qadimgi urfga ko‘ra eski idishlar sindiriladi).

Shuningdek, “Musulmonchilik”[29] atamasi lingvokulturologik jihatdan o‘zbek xalqining diniy-ma’naviy dunyoqarashini aks ettiradi, ammo nemis tilidagi tarjimada bu tushuncha yo‘qotilib, umumiy axloqiy iboralar bilan almashtirilgan. Ya‘ni,“Hat dieser Mensch überhaupt kein Gewissen?[30] (nemischadan tarjimasi: “Bu odamni o‘zi aqli joyidami?” ko‘rinishida idiomatik tarjima usulida o‘girilgan. Natijada tarjimada diniy va milliy qatlamlar sustlashgan, milliy kolorit zaiflashgan. Bizningcha, bu o‘rinda nemis tilida mavjud bo‘lgan “der Islamizmus” so‘zini qo‘llash eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lib, asliyat mazmunini to‘laqonli ochib berilishi va milliy koloritning saqlanishiga erishish mumkin edi. Bu ibora islomiy axloqiy qadriyatlarga tayanadi.

Tarjimada ko‘plab madaniy va diniy konnotatsiyalar, milliy realiyalar va idiomatik birliklar umumlashtirilgan, soddalashtirilgan yoki ba’zan butunlay tushirib qoldirilgan. Bu esa asliyatning o‘ziga xos ohangini va ma’naviy qatlamini tarjimada yetarlicha aks ettirishni qiyinlashtirgan. Ayrim diniy atamalar ko‘pincha umumlashtirilgan yoki e’tiborsiz qoldirilgan. Misol uchun, “xufton namozi”[31] – “Abendgebet”[32], “joynamoz”[33] − “Gebetsteppich”[34], “Qur’on o‘qimoq” − “ein Gebet sprechen” kabi. Shuningdek, iboralar va realiyalar, masalan, “xom sut emgan banda”[35] − “Alle sind wir Knechte des Herrn und irren”[36], tarzida “tuzini ichib, tuzlig‘iga tupurmoq”[37] − “die Hand bespeit, von der er Salz und Brot empfangen hat”[38] ko‘rinishida, “bir yostiqqa bosh qo‘ymoq”[39] iborasi esa jemanden als Frau werden[40] ko‘rinishida berilgan bo‘lib, bularning nemis tilidagi muqobillari konnotatsion jihatdan pasaygan yoki ramziy ma’no yo‘qolgan. Madaniyatga xos udumlar nomlari, masalan,“charlar”[41] − (Besuch im Haus des

[28] Dieter G., Günther H., Hans W. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt, – M.: Langenscheidt-Redaktion. 2010. – S. 855.
[29] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 251.
[30] Qodiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Dagyeli Verlag, 2020. – S. 220.
[31] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 18.
[32] Kadiriy A. Die Liebenden von Taschkent.. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 16.
[33] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. B. 177.
[34] Kadiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 151.
[35] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 323.
[36] Kadiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 271.
[37] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 177.
[38] Kadiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 150.
[39] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 335.
[40] Kadiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 282.
[41] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 168.

Schwiegervaters)[42], “suyunchi”[43] – (Geschenk), “obdasta”[44] – (das Waschbecken)[45] kabi so‘zlar esa ba’zida ko‘p so‘zli izohlar orqali berilgan, lekin qisqa, muvofiq muqobil topilmagan. Gestikula va xalqona ohang ifodalovchi so‘zlar, jumladan, “labini tishlab”[46] – (sich auf die Lippen beißen)[47], “boshini chayqadi”[48] – (den Kopf wiegend)[49] kabi so‘zlar tarjimada grammatik tarzda aks ettirilgan, ammo madaniy-emotsional yuklama yo‘qolgan. Shu bois, badiiy matn tarjimasi faqat leksik, grammatika yoki stilistik moslik asosida emas, balki kulturologik moslik, madaniyatlararo kontekst, konnotatsion to‘yinganlik, va metaforik tasvirlar asosida ham tahlil qilinmog‘i zarur degan xulosaga kelindi.

Boshqa iboralar, masalan, “haloliga ko‘z olaytirish” va “shayton bolasi”[50] kabi xalqona ifodalar tarjimada kinoya va madaniy yuklamasini yo‘qotgan. “Haloliga ko‘z olaytirish” tarjimada “stellt er der angetrauten Frau eines andere nach”[51] (tarjimasi: boshqa kishining turmush o‘rtog‘i ortidan yuradi) ko‘rinishida berilgan. “Shayton bolasi” “Das ist kein Mensch mehr, sondern ein Teufel.” (tarjimasi: bu endi odam emas, balki shayton.) tarzida ko‘proq aforizmga yaqin va umumlashgan ohangda berilgan. Umuman olganda, tarjimada diniy va milliy elementlar yo‘qotilishi orqali matn dunyoviy va g‘arbona etik doirada tushunarli bo‘lishi maqsad qilingan. Shu bilan birga, bu o‘zbek madaniyatiga xos mentalitet, axloqiy me’yorlar, dinning ijtimoiy roli kabi elementlarning boy qatlamini chetlab o‘tgan. O‘zbek tilidagi hissiy kuch, xalqona ohang va diniy asoslangan madaniy o‘ziga xoslik tarjimada xiralashgan. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaraganda, tarjima mazmunan to‘g‘ri, ammo madaniy boylik va xalqona-folklor ifodalar qisman yo‘qolgan. Tarjimonlar madaniy muqobil qidirish o‘rniga madaniy neytrallikka o‘tgan, bu esa asliyatdagi diniy, milliy, hissiy qatlamlarning to‘liq yoritilmaganligi deyishimiz mumkin.

Uchinchi bobning **“O‘tkan kunlar” romani nemis tiliga tarjimalarida muqobilsiz leksika va lakunalarning ifodalanishi”** deb nomlangan ikkinchi faslida “O‘tkan kunlar” romanining A.Shpext hamda B.Aripovalar tomonidan nemis tiliga tarjimalarida milliy-madaniy xususiyatlar hamda jami 49 ta milliy o‘ziga xos so‘zlar, muqobilsiz leksika va lakunalarning ifodalanishi tahlilga tortilgan.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida uchraydigan madaniy-real leksik birliklar (oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-ro‘zg‘or buyumlari)ning nemis tiliga tarjima jarayonidagi lingvokulturologik o‘zgarishlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi(3.2.1-jadval). Ushbu realiyalar xalqning milliy turmush tarzi, madaniy qadriyatlari va an’anaviy dunyoqarashini aks ettiradi.

---

[42] Kodiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 146.
[43] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 339.
[44] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 187.
[45] Kodiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 159.
[46] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 323.
[47] Kodiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 171.
[48] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 323.
[49] Kodiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 171.
[50] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. – B. 251.
[51] Qodiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Dagyeli Verlag, 2020. – S. 220.

Jadvalda (3.2.1-jadval) keltirilgan birliklarning aksariyati milliy koloritga ega bo‘lib, ular nemis tilida to‘liq ekvivalenti mavjud bo‘lmagan so‘zlardir. Shu bois tarjimonlar transliteratsiya, kalkalash, izohlash (tavsifiy tarjima), mahalliylashtirish (moslashtirish) kabi turli tarjima strategiyalarni qo‘llaganini ko‘rishimiz mumkin.

3.2.1-jadval

Oziq-ovqat, uy-ro‘zg‘or anjomlari hamda kiyim-kechak nomlari va ularning nemis tiliga tarjima variantlari

Asliyatda	**L.Bat va V.Smirnova tarjimasida (rus tili)**	**A.Shpext tarjimasida**	**B.Aripova tarjimasida**
qumg‘on	-	Der Tee	-
palov	плов	Der Pilaw	Der Palov
xurjin	хурджун	Churdshun	Satteltasche
ko‘rpacha	одеял	Die Decke	Die Decke
chopon	халат	Das Chalat	Das Khalat
mahsi	мягкий сапог	-	-
nos	нас	gelbe Kautabak	gelbe Kautabak
dasturxon	дастархан	Dasturchon	Dasturkhon
zarrin to‘n	парчовый халат	Der Brokatmantel	Der Brokatmantel
holva	халва	Das Halwa	Das Halva
nisholda	-	-	Nisholda
paranji	паранджи	Die Parandsha	Die Parandsha
salla	чалма	Der Turban	Der Turban
isiriq	исрык	Der Issirik	Der Isiriq
paytava	-	Der Strumpf	Der Strumpf

